



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI**

2023- yil “5” sentabr

BUYRUQ № 59

Toshkent sh.

**“Innovatsiya sohasida statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish  
bo'yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash haqida**

O'zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 21- dekabrda “Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-269-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi “O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4796-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, innovatsiya sohasidagi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiyatni yanada takomillashtirish maqsadida, buyuraman:

1. “Innovatsiya sohasida statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Davlat statistika qo'mitasining 2021- yil 29- apreldagi “Tashkilotlarning innovatsion faolligi hamda joriy qilingan innovatsiyalar natijalarining ta'siri kuzatuvlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha qo'llanma”ni tasdiqlash haqidagi 13-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.
3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov